

CHO‘LPONNING ADABIY TANQIDIY QARASHLARI

FarDU 4-bosqich talabasi

Mohigul Ne'matova Doniyorjon qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning "Adabiyot nadir?" maqolasi haqida ayrim mulohazalar hamda uning bugungi kundagi ahamiyati, Cho‘lponning adabiyotga, davr voqealariga bo‘lgan munosabati kabi masalalar o‘rin olgan.

Tayanch so'zlar: Cho‘lpon, Naim Karimov, adabiyot, adabiyot nadir, ilm-ma‘rifat, millat.

Annotation: This article discusses certain reflections on Abdulhamid Chulpon's essay "What is Literature?", as well as its relevance today, and examines his attitude toward literature and the events of his time.

Key words: Chulpon, Naim Karimov, literature, what is literature, knowledge, nation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые размышления о статье Абдулхамид Чулпон «Что такое литература?», а также её значение в современности. Кроме того, анализируется отношение Чулпона к литературе и к событиям своего времени.

Ключевые слова: Чулпон, Наим Каримов, литература, что такое литература, наука и просвещение, нация.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon jadid adabiyotining yorqin namoyondasi 1898-yil Andijonda dunyoga kelgan. Umri davomida yozuvchilik, shoirlik, tarjimonlik faoliyati bilan shug'illandi. Bolalik yillaridanoq atrofida sodir bo'layotgan voqealarga e'tiborli bo'lib ular haqida o'z fikrlarini bildira olgan. Avval eski maktabda, keyin rus-tuzem maktablari va madrasada ta'lim olgan. 11-12 yoshlarida Qur'oni Karim tahsiliga berilgan. O'z bilimlarini har jabhada mustahkamlashga intilgan Cho'lponning adabiyotga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. O'zi she'rlar, hikoyalar, o'sha davr uchun dolzarb hisoblangan mavzularda maqolalar yozdi. U „Sadoi Turkiston“ gazetasida dastlabki „Turkistonli qardoshlarimizga“ she'ri, „Qurboni jaholat“, „Do‘xtir Muhammadyor“ hikoyalari va „Adabiyot nadir?“, "Muhtaram Yozg‘uvchilarimizga" maqolasini e‘lon qilib, shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o‘rin egallagan. Ushbu maqolalar orasida "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida bosilib chiqqan "Adabiyot nadir?" maqolasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tafakkurining yangilanish jarayoni jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayonda Abdulhamid Cho‘lpon

alohida o‘rin tutdi. Uning “Adabiyot nadir?” nomli maqolasi nafaqat adabiyotning mohiyatini anglashga xizmat qiladi, balki milliy uyg‘onish davrining estetik va ijtimoiy qarashlarini ham aks ettiradi. "Aytish kerakki, garchand bu savol har bir ijod ahlining qarshisida ko‘ndalang turgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida Cho‘lponga qadar hali hech kim mazkur savolga javob berishga jur‘at etmagan edi"¹ – deydi Naim Karimov.

Cho‘lpon ushbu maqolasida adabiyotga sodda va yuzaki ta‘rif berish bilan cheklanmaydi. U adabiyotni inson ruhiyatining eng nozik ifodasi, millatning ichki kechinmalari va orzu-intilishlarini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. "Adabiyot chin ma‘nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma‘rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir". Uning fikricha, adabiyot – bu hayotning oddiy nusxasi emas, balki uni chuqur his etish, anglash va qayta yaratish jarayonidir. Shu jihatdan, yozuvchi adabiyotning faqat estetik emas, balki tarbiyaviy va ma‘rifiy vazifasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi: "Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur". Maqolada adabiyotning ijtimoiy vazifasi ham muhim o‘rin egallaydi. Cho‘lpon adabiyotni jamiyat hayotidan ajralgan holda tasavvur qilmaydi. Aksincha, u adabiyotni xalq ongini uyg‘otuvchi, uni ilm-ma‘rifat sari yetaklovchi, ijtimoiy muammolarni yorituvchi kuch sifatida baholaydi. Jadidchilik mafkurasiga xos bo‘lgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalari uning qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda, adabiyot Cho‘lpon talqinida nafaqat estetik zavq manbai, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Cho‘lpon maqolada adabiyotni xalqqa ruh bag‘ishlaydigan muqaddas kuch sifatida tasvirlaydi. Uning asosiy g‘oyasi: “Adabiyot yashasa, millat yashar”. Darhaqiqat, adabiyot o‘qigan har bir kishi atrofidagi voqealarni tahlil qilishni, ularga munosabat bildirishni boshlaydi. O‘zida tanqidiy fikrlashni shakllantirgan inson esa atrofidagilarga befarq bo‘lmaydi, millat uyg‘onishiga hissa qo‘shadi. Cho‘lpon nazarida agar jamiyat adabiyotga e‘tibor bermasa, uning ma‘naviy-ma‘rifiy inqirozga uchrashini aytadi. U avvalo jadid-oqsoqollar hamjamiyati hayotida adabiyot kechalarini o‘tkazish, ziyolilar eshiklarini adabiyotni o‘qishga ham ochishni taklif etadi. Maqolada Cho‘lpon adabiyotning jamiyatdagi o‘rniga katta e‘tibor qaratadi. U adabiyotni xalqni uyg‘otuvchi, uning ongini yuksaltiruvchi kuch sifatida ko‘radi. Ayniqsa, jadid adabiyotiga xos bo‘lgan g‘oya — millatni jaholatdan chiqarish, ilm-ma‘rifatga undash — Cho‘lpon qarashlarida aniq namoyon bo‘ladi. Demak, uning nazarida adabiyot faqat zavq beruvchi san‘at emas, balki ijtimoiy mas‘uliyatni ham o‘z zimmasiga olgan kuchdir. Cho‘lpon millat uyg‘onishi, ma‘rifatli bo‘lishi uchun, inson

chin ma'noda inson bo'lishi uchun adabiyot zaruriy bir vosita ekanini takror ta'kidlaydi: "Hozirda bizga birdan-bir lozim bo'lg'on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot..."

Maqola o'zida jadid g'oyalarini aks ettirgan. Nashr etilgach, aholi orasida keng muhokama qilinishi cheklangan bo'lsa-da, u o'z zamonasidagi ziyolilarga katta ruhiy ta'sir ko'rsatgan. Sovet davrida Cho'lponning asarlari qoralangan paytlarda ushbu maqola ham tanqidga uchragan. Mustaqillikdan so'ng, 1990-yillarda uning asarlari, jumladan "Adabiyot nadir?" qayta nashr etildi va adabiyotshunoslar tomonidan qayta tiklanib, tahlilga tortilgan hamda keng ommaga taqdim etilgan.

"1914-yil 11-sentabrda turkiy olamning buyuk muallimlaridan biri Ismoilbek Gasprali vafot etganda, Cho'lpon "millatning porloq chirog'i o'chdi, oh, biz jujuqlarning bobosi ko'chdi, oh", deb ta'ziyanoma yozgan va uning tagiga "16 yoshlik talaba", deb imzo chekkan edi. Ana shu "jujuq", ana shu "16 yoshlik talaba" adabiyotning g'oyaviy-badiiy va tarbiyaviy vazifasini to'g'ri tushunib, uning faqat vujudimizga emas, qonlarimizga ham singgan qora balchiqlarni tozalaydigan, yurak kirlarini yuvadigan ma'rifat suvi ekanini zukkolik bilan his etib, buloq suvi yanglig' asarlari bilan xalqning chang va tuproq bilan to'lgan ko'zlarini yuvishga, jamiyat binosining xiralashgan oynalarini yorug' va ravshan qilishga kirishdi"². O'z asarlari bilan o'zbek adabiyotiga yangi ruh, yangi ohang, yangi bir yo'nalish olib kirdi. Umrining so'nggiga qadar xalq uchun, millat uchun ijod qildi, ular uchun yashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Adabiyot nadir? — «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida bosilgan.
2. Karimov N. Cho'lpon (ma'rifiy roman). Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: " Navoiy universiteti", 2018.